ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

# ABDULHAMID CHO‘LPON HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

**Xayitmamatova Charosxon Yodgorbekovna**
Urganch davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adbiyoti yo'nalishi
2-kurs magistranti
Tel:+99891 858 77 97
Antonatsiya: Mazkur maqolada Abdulhamid Cho‘lpon ijodini interfaol metodlardan unumli foydalangan holda o‘rganish
https://doi.org/10.5281/zenodo.23697849

**Kalit so‘zlar:** Abdulhamid Cho‘lpon hayoti va ijodi, interfaol metodlar.

**Kirish**

O‘zbek ma’rifatparvarlik harakatining peshqadamlaridan bo‘lgan Abbdulhamid Cho‘lpon ijodi milliy adabiyot, ta’lim va madaniyat tarixida alohida bosqichni tashkil etadi. Cho’lpon 1897- yili Andijonda tug’ilgan. Eski maktabda savod chiqargan. Keyin rus-tuzem maktabida o’qigan. 1914- yili Toshkentga keladi va o’z faoliyatini “Sadoi Turkiston” gazetasi bilan bog’laydi. Uning asarlari Orenburg, Ufa, Qozon va Bog’chasaroyda chiqadigan gazeta va jurnallarda ham bosilib turgan. 1916-1917- yillarda Orenburgda yashaydi va u yerda boshqird hukumati mahkamasida kotib bo’lib ishlaydi. So’ng Toshkentga qaytadi. 1920- yilgacha TurkRosTAda xizmat qiladi. 1920- yili Bokuda bo’lgan Sharq xalqlari qurultoyida qatnashadi. O’sha yili Fitrat taklifi bilan Buxoroga boradi va o’zbek tilida chiqadigan “Buxoro axbori” gazetasiga rahbarlik qiladi. Bir yilcha ishlab Toshkentga qaytadi. Adabiyot va madaniyat ishlari bilan shug’ullanadi. 1924-1926- yillarda esa Cho’lpon Moskvada yashaydi. U yerda ochilgan O’zbek drama studiyasiga rahbarlik qiladi. Shundan keyin jadidlarga qarshi boshlangan kompaniya Cho’lponni ham chetlab o’tmaydi. Ta’qib va tazyiqlarga qaramay, shoir qizg’in ijodiy faoliyat bilan shug’ullandi. 30-yillarning boshida yana Moskvaga ketadi va SSSR Markaziy Ijroiya Komitetida tarjimon bo’lib ishlaydi. Cho’lpon 1937- yil 14- iyulda qamoqqa olinadi va 1938- yil 4- oktyabrda otib o’ldiriladi. Cho’lponning “O’zbek yosh shoirlari” (1923), “Go’zal yozg’ichlar” (1925), “Adabiyot parchalari” (1926) majmualarida chop etilgan she’rlari, o’z she’rlari asosida nashr qilingan “Uyg’onish” (1922), “Buloqlar” (1923), “Tong sirlari” (1926), “Soz” (1935) kabi to’plamlari yangi o’zbek she’iyati taraqqiyotida muhim o’rin tutadi. Uning “Kecha va kunduz” (1936) romani, “Do’xtur Muhammadyor” (1914), “Qor qo’ynida lola”, “Novvoy qiz”, “Oydin kechalarda” hikoyalari yangi davr o’zbek nasri rivojiga salmoqli hissa bo’lib qo’shildi. Cho’lponning “Yorqinoy” (1920), “Xalil farang” (1921), “Cho’rining isyoni” (1926), “Yana uylanaman” (1926), “Mushtumzo’r” (1928), “O’rtoq Qarshiboev” (1928), “Hujum” (1928) kabi dramalari uning dramaturg sifatida ham samarali ijod qilganligini ko’rsatadi. Cho’lpon Pushkinning “Dubrovskiy”, “Boris Godunov” asarlarini, Gorkiyning “Ona” romani va “Egor Bulichev” pyessasini, Lohutiyning “Evropa safari”ni, Gotsiyning “Malikai Turandot”, Shekspirning “Hamlet” dramalarini o’zbek tiliga tarjima qilish orqali o’zbek va jahon adabiy aloqalari rivojiga munosib hissa qo’shgan deya olamiz.

Dars mashg’ulotlarida esa yozuvchi ijodini o‘rganishda zamonaviy metodalar bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etadi va etib kelmoqda. Chunki darsning qiziqarli va mazmunli bo‘lishida metodlarning o‘rni kata ahamiyatga ega. Yozuvchining hayoti va uning asarlarini o‘rganishda albatta

interfaol metodlar bizga qo‘l keladi. Quyidagi metodlarni dars jarayonida qo‘llash o‘quvchining fikrlash doirasini, dunyoqarashini kengaytirishiga yordam beradi.

1.Nihol metodi.

2.Matnni davom ettiring.

3.Baliq skeleti.

4. Bahs-munozara metodi.

5.Aqliy hujum.

1.Nihol metodi-bu ta’limda qo‘llaniladigan interfaol metodlardan biri bo‘lib, o‘quvchilarning fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. “Nihol” so‘zi o‘sish, rivojlanish kabi ma’noni bildiradi. Metodning mazmuni ham shundan iboratki, o‘quvchi olgan bilimlarini niholni daraxt qilish orqali isbotlaydi.Bunda yozuvchining hayoti va ijodini niholdan novdalar chiqarib ma’lumot yozib niholni katta daraxt qiladi olgan bilimlarini mustahkamlaydi.

Nihol metodining maqsadi;

O‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish

Faollik va qiziqishni oshirish

O‘z fikrini aniq va mantiqli bayon qilishga o‘rgatish.

2. Matnni davom ettiring-bu metod o‘quvchilarni ziyraklikka chaqiradi. Bu metod qo‘llanganda o‘quvchi asarni boshdan oxirigacha o‘qib chiqqan bo‘lishi lozim. Bunda asarning eng yaxshi detalniy joylari tanlanadi va qog’ozga tushiriladi 2 yoki 3 gapdan ko‘p bo‘lmagan matn qog’oz tayyorlanadi. Keyinchalik doskaga bittadan o‘quvchi chiqazib xohlagan varoqli matnni tortadi va o‘qiydi. Matn asarning aynan boshi yoki oxiri bo‘lmaydi unda detalni joyi tanlab olinadi va o‘quvchi matndagi jaroyonni davomini aytib beradi. Bu esa o‘quvchini ziyraklika, keng doirada fikrlashga katta yordam beradi.

3.Baliq skeleti metodi-adabiyot darslarida keng qo‘llaniladigan interfaol metodlardan biridir. Bunday metodlarda shoirlarning bosib o‘tgan hayot yo‘lini boshqa zamondosh shoirlar bilan taqqoslash yoki ularning asarlarini o‘z davridagi yozuvchilar asarlari bilan jahon adabiyoti durdonalari bilan ham solishtirib o‘rganish mumkin bo‘ladi.

4.Bahs- munozara metodi- bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarning (yoki talabalarning) fikrlashini faollashtirish, erkin fikr bildirish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish va boshqalarning fikrini hurmat bilan tinglashga o‘rgatadigan interfaol metoddir. Mavzuni tanlashda esa bahsga sabab bo‘ladigan, muammoli savol tanlanadi va guruhlar shakllantiriladi.

Bahs–munozara metodining maqsadi;

Mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish,

Muloqot madaniyatini shakllantirish,

Dalillar keltirib fikrni asoslashga o‘rgatish,

Muammoni turli nuqtai nazardan tahlil qilish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak har bir metod o‘ziga yarasha ahamiyat kasb etadi. Interfaol metodikalar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar fikrlash doirasini esa kengaytiradilar.

Manba https://tafakkur.net/abdulhamid-cholpon.haqida

Manba https://tafakkur.net/abdulhamid-cholpon.haqida Manba https://tafakkur.net/abdulhamid-cholpon.haqida Manba https://tafakkur.net/abdulhamid-cholpon.haqida